

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
TARIX INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.05/2025.27.12.Tar.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TARIX INSTITUTI**

**ULUG‘BEK NUSRATULLO O‘G‘LI OLIMOV**

**TURONNING QADIMGI DAVRI ARAB TARIXSHUNOSLIGIDA  
(20-yuzyillikning ikkinchi yarmi – 21-yuzyillik boshlaridagi tadqiqotlar tahlili)**

**07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent, 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of the dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Ulug‘bek Nusratullo o‘g‘li Olimov**

Turonning qadimgi davri arab tarixshunosligida

(20-yuzyillikning ikkinchi yarmi – 21-yuzyillik boshlaridagi tadqiqotlar tahlili) ..... 3

**Ulugbek Nusratullo ugli Olimov**

The ancient period of Turan in Arab historiography

(Analysis of research from the second half of the 20th to the early 21st centuries)..... 25

**Улугбек Нусратулло угли Олимов**

Древний период Турана в арабской историографии

(Анализ исследований второй половины XX – начала XXI вв.) ..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works

Список опубликованных работ ..... 52

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
TARIX INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.05/2025.27.12. Tar.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TARIX INSTITUTI**

**ULUG‘BEK NUSRATULLO O‘G‘LI OLIMOV**

**TURONNING QADIMGI DAVRI ARAB TARIXSHUNOSLIGIDA  
(20-yuzyillikning ikkinchi yarmi – 21-yuzyillik boshlaridagi tadqiqotlar tahlili)**

**07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent, 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Tar1753 raqam bilan ro'yxatga olingan**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.fati.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nigora Ashirovna Allayeva**  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Azimxo'ja Muzaffarovich Ataxodjayev**  
tarix fanlari doktori, professor

**Tohir Xusanovich Norkobilov**  
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti huzuridagi ilmiy darajalarini beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tar.05.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "10" aprel soat 14:00 daqi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz tor ko'chasi, 5-uy, Tarix instituti, 8-qavat, Majlislar zali. Tel.: (+99871) 233-54-70; faks: (+99871) 233-39-91, e-mail: info@fati.uz.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent sh., Ziyolilar ko'chasi, 13-uy). Tel.: (+99871) 262-74-58; faks: (+99871) 262-34-41).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "19" mart kuni tarqatildi.  
(2026-yil "19" martdagi 6-raqamli reyestr bayonnomasi bilan)



**Azamat Ziyo**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, akademik

**X.S. Jumanazarov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari doktori (DSc)

**F.S. Boboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc)

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi globallashuv va madaniy integratsiya sharoitida jahon tamadduni markazlari o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarning ildizlarini xolis tadqiq etish hamda insoniyat taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi davr tarixini o'rganishda yagona mafkuraviy yoki hududiy yondashuvlar bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy ilmiy maktablar tajribasi va muqobil nazariyalarga tayanish davr talabiga aylanmoqda. Mazkur yondashuv mintaqalararo munosabatlarning g'oyaviy negizlarini chuqur anglashga hamda fanda mavjud an'anaviy qarashlardan xoli bo'lgan, muhim ilmiy xulosalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Jahonning ko'plab nufuzli ilmiy-tadqiqot maskanlari va oliy o'quv yurtlarida Turonning qadimgi davr tarixi, jumladan, uning ilk tamaddun o'choqlari, o'ziga xos davlatchilik tizimi hamda qo'shni mintaqalar bilan o'rnatgan keng qamrovli savdo-madaniy aloqalari bo'yicha keng ko'lamlil izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, mintaqadagi ilk shaharsozlik madaniyati, savdo yo'llari tizimidagi iqtisodiy aloqalar, Zardushtiylik dini va uning tarqalish geografiyasi masalalari arxeologik va yozma manbalar asosida tizimli o'rganilmoqda. Shu bilan birga, Turon va Yaqin Sharq yodgorliklari o'rtasidagi tarixiy bog'liqlikni arab olimlarining xulosalari negizida asoslash, ularning ilk davlatchilik hamda siyosiy tarixga doir talqinlarini boshqa xorijiy izlanishlar natijalari bilan taqqoslash, shuningdek, arab mamlakatlarida Zardushtiylik dini va "Avesto" merosiga nisbatan shakllangan ilmiy qarashlarni yoritib berish orqali sohadagi mavjud ilmiy bo'shliqlarni to'ldirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekistonda milliy o'zlikni anglash va tarixiy merosni, ayniqsa, uning kam o'rganilgan sahifalarini xolisona tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday islohotlar negizida o'zbek davlatchiligining qadimiy ildizlariga ilmiy baho berish, uning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini aniqlash vazifasi yotadi. Darhaqiqat, "...bundan uch ming yil muqaddam mintaqada ilk shaharlar va davlatchilikning vujudga kelishi bu hududda yangi hayotiy tushunchalar va falsafiy qarashlarning, ilm-fan, xususan, tibbiyot va astronomiya, jo'g'rofiya va matematika, geodeziya, me'morchilik sohalarining, madaniy-ma'rifiy va diniy qadriyatlarining jadal taraqqiy etishiga asos yaratdi"<sup>1</sup>. Shu jihatdan, Turonning eng qadimgi davri tarixini xorijiy manbalar, xususan, arab tarixshunoslik va arxeologiya maktabi vakillarining tadqiqotlari asosida o'rganish, tariximizning mazkur davriga berilgan baholarni qiyosiy tahlil qilish uning xalqaro miqyosdagi ahamiyatini ochib berishda muhim masala ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 16-yanvardagi F-5181-son "Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoyishi hamda 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 15-sentabrda "Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyalari chorrahasida" xalqaro madaniyat forumi ishtirokchilari uchun nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/4614>

Farmonida tarixiy merosni asrash, o'tmishni xolisona o'rganish va ilmiy tadqiqotlarni xalqaro andozalar darajasida rivojlantirishga oid belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ma'lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Turonning qadimgi davri tarixining arab tarixshunosligida aks etishi masalasi bugungi kungacha mustaqil tadqiqot obyekti sifatida maxsus o'rganilmagan. Shu jihatdan aynan tarixshunoslik masalasi borasida bildirilgan ba'zi mulohazalarni keltirish mumkin. Xususan, ayrim arab olimlari o'z ishlarining kirish va xulosa qismlarida ushbu mavzuni o'rganish zarurati, holati, bu boradagi muammolarga to'xtalib o'tishgan. Ular Turonning qadimgi davri xususida o'zlaridan avvalgi ilmiy ishlarga umumiy sharh berib, qo'lga kiritilgan yutuq va mavjud kamchiliklarni ko'rsatib o'tganlar. Xususan, kuvaytlik tadqiqotchi Nodir al-Vasir o'zining "Movarounnahr yurti: Islom fathidan Rossiya bosqiniga qadar"<sup>2</sup> nomli monografiyasida Turon tarixining o'zidan oldingi arab mualliflari tomonidan o'rganilish darajasi, ya'ni bu mavzuning arab davlatlarida kam tadqiq qilinganligi, arab tilidagi ilmiy adabiyotlarning yetishmasligi kabi mavjud muammolarni ta'kidlagan. Saudiyalik Muhammad Muso Sharif esa "Markaziy Osiyo (Turkiston) ulamolari: qadimdan bugungi kungacha"<sup>3</sup> nomli ilmiy ishida mazkur mavzuning tadqiq etilishidagi asosiy nuqson sifatida Sovet hokimiyati tomonidan yozuv islohoti o'tkazilib, arab imlosidagi yozuvdan voz kechilganligini ko'rsatgan.

Mavzuni yoritishda nazariy va metodologik jihatdan ahamiyatli tadqiqotlardan biri sifatida esa Sh. Ikromovning ishini keltirish mumkin<sup>4</sup>. Uning tadqiqoti O'zbekistonning eng yangi tarixiga oid bo'lsa-da, arab davlatlaridagi ilmiy tadqiqot markazlari, tarix fanini o'rganish usullari, soha mutaxassislarining xulosalari orqali O'zbekiston tarixiga bo'lgan munosabat haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Muallif O'zbekistondagi demokratik jarayonlar, xususan, diniy qadriyatlarining tiklanish va mustahkamlanish dinamikasi, tashqi va ichki siyosat, ikki tomonlama hamkorlik masalalari va ularning istiqbollarga oid arab davlatlaridagi tadqiqotlar hamda ilmiy markazlar faoliyatini tahlil qilgan.

Ko'rinib turibdiki, bu borada asosan davriy jihatdan so'nggi o'ttiz yillikdagi tarixiy jarayonlar qamrab olingan bo'lib, Turonning qadimgi davriga oid olib borilgan tadqiqotlar, jumladan Arab davlatlarida arxeologiya sohasining rivojlanish bosqichlari, Turonning qadimgi davriga oid tadqiqot olib boruvchi arab olimlari, ilk davlatchilik masalalari, Ahamoniylar va yunon-makedonlarga qaramlik davri va ijtimoiy-ma'naviy sohaga oid masalalarni tadqiq qilish zarurati mavjud. Bevosita,

<sup>2</sup> نادر الوثير. بلاد ما وراء النهر من الفتح الإسلامي إلى الاحتلال الروسي. - الطبعة الأولى. 1445هـ/2024م. - ص. 676.

<sup>3</sup> محمد بن موسى الشريف. علماء آسيا الوسطى (التركستان) بين الماضي والحاضر. 2009. - ص. 79.

<sup>4</sup> Ikromov Sh. Mustaqil O'zbekistondagi transformatsiya jarayonlarining arab davlatlarida yoritilishi: t.f.f.d. uchun yozilgan diss. - Toshkent, 2022. - 146 b.

Turonning qadimgi davrini tadqiq etgan arab olimlarining ishlari dissertatsiyaning boblarida tarixshunoslik nuqtai nazaridan batafsil tahlilga tortilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix institutining "O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)" o'n jildlik akademik ilmiy asari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** arab tarixshunosligida Turonning qadimgi tarixi, xususan, eng qadimgi zamonlardan yunon-makedonlar istilosiga qadar bo'lgan davrga oid ilmiy talqin va yondashuvlarni aniqlash, ularni qiyosiy tahlil etish hamda milliy tarixshunoslik uchun nazariy va manbaviy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Arab davlatlarida Turon tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarning kuchayishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va ilmiy omillarni aniqlash;

Arab mamlakatlarida arxeologiya sohasining rivojlanish bosqichlari va mintaqa tarixini o'rganishdagi asosiy nazariy yondashuvlarni tahlil qilish;

Arab tarixchilarining Turon tarixiga bo'lgan qiziqishlari nima bilan bog'liqligini ochib berish;

Turon va arab davlatlaridagi qadimgi davrga oid manzilgohlarni o'zaro taqqoslash orqali to'plangan ma'lumotlar borasida milliy va arab olimlarining ilmiy xulosalarini qiyosiy tahlil qilish;

Turonda ilk davlatchilikning shakllanishi va siyosiy boshqaruv masalasiga doir arab tadqiqotchilarining qarashlarini ilmiy asoslanganlik darajasini belgilash;

Turonning Ahamoniylarga qaramlik davri tarixiga oid arab olimlarining yondashuvlarini tarixshunoslik jihatidan tahlil qilish;

Yunon-makedonlarga qaramlik davrida Turon mavzusiga oid arab davlatlaridagi tadqiqotlarni tahlil qilib, mavjud yondashuvlarni baholash;

Qadimgi davr Turonda ijtimoiy-ma'naviy qarashlar, Zardushtiylik dini va "Avesto" kitobining arab tarixshunosligida mavjud ilmiy yondashuv asosidagi tadqiqotlarni aniqlash, mualliflarning xulosalarini, qarama-qarshi fikrlar hamda ziddiyatli masalalarni tahlil qilish;

Arab davlatlarida Zardushtiylik dini va "Avesto" kitobiga oid diniy va falsafiy yo'nalishdagi izlanishlarni qiyosiy tahlil qilish orqali, olimlarning xulosalariga ilmiy-tanqidiy munosabat bildirish.

**Tadqiqot obyektini** arab olimlarining Turonning qadimdan yunon-makedonlarga qaramlik davrigacha bo'lgan tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** arab olimlari tadqiqotlarida aks etgan Turon hududidagi qadimgi davri manzilgohlari, ijtimoiy-iqtisodiy, diniy hayot, harbiy-siyosiy jarayonlar, Ahamoniylar va yunon-makedonlarga qaramlik davridagi boshqaruvga doir ma'lumotlar, ilmiy-nazariy qarashlar, xulosalar va yondashuvlardan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tarixiylik, xolislik, mantiqiylik, tizimlilik, davriylik, mikro va makro tarix, qiyosiy-tanqidiy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Zamonaviy arab tarixshunosligida, umumiy arxeologik o'xshashliklarga tayanib ilgari surilgan "O'zbekistondagi Teshiktosh manzilgohi Iroqdagi Shanidar g'oridan migratsiya qilgan neandertallarning vaqtinchalik makoni" degan nazariyaning ilmiy jihatdan asossiz ekanligi tosh industriyasidagi turlarga oid farqlar (*Teshiktoshda og'ir mehnat qurollari ustunligi, Shanidarda uchli qurollarning ko'pligi*) hamda Turon hududida Teshiktosh bilan zamondosh rivojlangan boshqa manzilgohlarning (*Xatak*) mavjudligi asosida Boysun tog' tizmalari ko'chish jarayonidagi vaqtinchalik manzilgoh emas, balki mustaqil antropogenez o'chog'i ekanligi dalillangan;

Arab tarixshunosligida, ilgari surilgan "Turonning neolit va bronza davri madaniyatlari (*Joytun, Anov, Gono'rtepa*) Yaqin Sharq sivilizatsiyasi ta'sirining mahsulidir" degan yondashuvning biryoqlama ekanligi Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi (*M. Masson*) va Baqtriya-Marg'iyona arxeologik majmuasi (*V. Sarianidi*) materiallarining stratigrafik tahlili asosida inkor etilib, Joytun va Anov yodgorliklarida o'troq dehqonchilik hamda kulolchilikning shakllanishi tashqi omil hisobiga emas, balki mintaqaning o'z ichki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi negizida bosqichma-bosqich yuz berganligi, Gono'rtepaning me'moriy tuzilishi va dafn marosimlari esa Yaqin Sharq andozasidan farqli o'laroq, mahalliy diniy-dunyoviy qarashlar asosida rivojlangan mustaqil tamaddun o'chog'i ekanligi dalillangan;

Bugungi kungacha fanda mavjud bo'lgan "Ellin madaniyatining ustunligi"ga asoslanuvchi yondashuvga qarshi o'laroq, arab tarixshunosligida Makedoniyalik Aleksandrning sharqqa yurishi jarayonida yunon-makedon zodagonlarida Sharq madaniyatining o'ziga xos jihatlari (*hukmdor shaxsini hurmat qilishga qaratilgan saroy odati, tantanali qabul marosimlari, shohona libos va kiyinish madaniyati hamda hukmdorga murojaat qilishning yuksak tartib-qoidalari*) o'zlashtirishga moyilligi bo'lganligi, bu esa "ellinlashtirish"ning bir tomonlama jarayon emas, balki nisbiy tushuncha ekanligini ko'rsatuvchi xulosa ustuvor ekanligi asoslangan;

20-yuzyillikning ikkinchi yarmida arab tarixshunosligida "Avesto" va zardushtiylikni qiyosiy-diniy metod asosida o'rganish ko'lamining keskin kengayishi mintaqadagi siyosiy jarayonlar, xususan, 1967-yilgi "Olti kunlik urush"dagi mag'lubiyat ortidan "panarabizm" (arab birligi) mafkurasining chuqur tanazzuli bilan bog'liq ekanligi, natijada yuzaga kelgan g'oyaviy bo'shliqni to'ldirish hamda islom dinining qadimgi e'tiqodlardan mutlaq ustunligini ko'rsatib berishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojning ortishi mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning kuchayishiga asosiy turtki bo'lganligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Dissertatsiyada ilk bor arab tarixshunosligida Turonning qadimgi davriga oid jami 150 ga yaqin tadqiqot mavjudligi, ulardan 32 tasi maxsus maqola, 4 tasi dissertatsiya, 9 tasi manba hamda 100 ga yaqin umumiy tarixga oid adabiyotlar ekanligi aniqlanib, tahlil etilgan hamda ularda ilgari surilgan xulosalar milliy

tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari bilan taqqoslanib, ilmiy jihatdan asoslanmagan yoki bugungacha bahsli hisoblangan nazariyalar ko‘rsatib berilgan;

Arab davlatlarida Markaziy Osiyo respublikalari tarixi, jumladan, O‘zbekiston tarixini o‘rganishda asosiy masalalar tizimli tahlil qilinib, unga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, mavzuning tadqiq etilgan jihatlari va kelgusida o‘rganilishi lozim bo‘lgan yo‘nalishlar borasida amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Turonning qadimgi davr tarixini yoritishda bevosita “Arab arxeologlari ittifoqi” tomonidan nashr qilinadigan ilmiy jurnaldagi maqolalardan, arab davlatlari va Markaziy Osiyo hududida tashkil etilgan arxeologik tadqiqot materiallari, mavzuga doir 200 dan ortiq ilmiy adabiyotning tahlilga tortilgani, shuningdek, tarixshunoslik sohasida keng qo‘llaniladigan tanqidiy, qiyosiy tahlil usullari va yondashuvlaridan foydalanilgani, natijalarning respublika va xalqaro ilmiy konferensiya materiallari, OAK hamda nufuzli xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgani, ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosalar, takliflar va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilgani hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Turonning qadimgi davri tarixiga oid arab tarixshunosligidagi qarashlarning ilk bor maxsus, yaxlit tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilganligi, Turon sivilizatsiyasining Yaqin Sharq madaniyati ta‘sirida shakllangani haqidagi ayrim qarashlar tanqidiy tahlil etilib, uning o‘ziga xos (lokal) rivojlanish bosqichlariga ega bo‘lgani ochib berilganligi, shuningdek, mavzuga oid arab ilmiy markazlari va “Arab arxeologlari ittifoqi”ning faoliyati tahlil qilinib, arab tarixshunosligining o‘ziga xos yo‘nalishlari va uslubiy yondashuvlari aniqlab berilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xulosa va takliflaridan oliy o‘quv yurtlari, tadqiqot institutlari, arab davlatlari madaniyat markazlari bilan aloqalarni mustahkamlash, O‘zbekistonning boy va buyuk tarixini tanitish maqsadida arab davlatlarida xalqaro darajada ilmiy yig‘inlar tashkil qilish, tarixiy ko‘rgazmalarni ochish, har ikki tomon olimlari o‘rtasida doimiy aloqalarni o‘rnatishga xizmat qiladi.

#### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Turonning qadimgi davri tarixining Arab davlatlarida yoritilishini (20-yuzyillikning ikkinchi yarmi – 21-yuzyillik boshlari) mavzusiga oid ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

Zamonaviy arab tarixshunosligida, umumiy arxeologik o‘xshashliklarga tayanib ilgari surilgan “O‘zbekistondagi Teshiktosh manzilgohi Iroqdagi Shanidar g‘oridan migratsiya qilgan neandertallarning vaqtinchalik makoni” degan nazariyaning ilmiy jihatdan asossiz ekanligi tosh industriyasidagi turlarga oid farqlar (Teshiktoshda og‘ir mehnat qurollari ustunligi, Shanidarda uchli qurollarning ko‘pligi) hamda Turon hududida Teshiktosh bilan zamondosh rivojlangan boshqa manzilgohlarning (Xatak) mavjudligi asosida Boysun tog‘ tizmalari ko‘chish jarayonidagi vaqtinchalik manzilgoh emas, balki mustaqil antropogenez o‘chog‘i ekanligi haqidagi yondashuvlarga oid xulosalardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Ochiq dars” ko‘rsatuvining ssenariysini tayyorlashda

foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” teleradiokanali davlat unitar korxonasi)ning 2025-yil 3-avgustdagi 01-044-204-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ma‘lumotlar Turon tarixining xalqaro miqyosda yoritilish darajasini keng ommaga tushuntirib berishga xizmat qilgan.

Arab tarixshunosligida, ilgari surilgan “Turanning neolit va bronza davri madaniyatlari (Joytun, Anov, Gono‘rtepa) Yaqin Sharq sivilizatsiyasi ta‘sirining mahsulidir” degan yondashuvning biryoqlama ekanligi Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi (M.Masson) va Baqtriya-Marg‘iyona arxeologik majmuasi (V.Sarianidi) materiallarining stratigrafik tahlili asosida inkor etilib, Joytun va Anov yodgorliklarida o‘troq dehqonchilik hamda kulolchilikning shakllanishi tashqi omil hisobiga emas, balki mintaqaning o‘z ichki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi negizida bosqichma-bosqich yuz berganligi, Gono‘rtepaning me‘moriy tuzilishi va dafn marosimlari esa Yaqin Sharq andozasidan farqli o‘laroq, mahalliy diniy-dunyoviy qarashlar asosida rivojlanganligi haqidagi ilmiy qarashlariga oid natijalardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalining ko‘rsatuvlar turkumini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” teleradiokanali davlat unitar korxonasi)ning 2025-yil 3-avgustdagi 01-044-204-son ma‘lumotnomasi). Taqdim etilgan materiallar milliy qadriyatlarning jahon ilmiy maydonidagi talqinini boyitishga xizmat qilgan.

Bugungi kungacha fanda mavjud bo‘lgan “Ellin madaniyatining ustunligi”ga asoslanuvchi yondashuvga qarshi o‘laroq, arab tarixshunosligida Makedoniyalik Aleksandrning sharqqa yurishi jarayonida yunon-makedon zodagonlarida Sharq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini (hukmdor shaxsini hurmat qilishga qaratilgan saroy odati, tantanali qabul marosimlari, shohona libos va kiyinish madaniyati hamda hukmdorga murojaat qilishning yuksak tartib-qoidalari) o‘zlashtirishga moyilligi bo‘lganligi, bu esa “ellinlashtirish”ning bir tomonlama jarayon emas, balki nisbiy tushuncha ekanligini ko‘rsatuvchi ilmiy ma‘lumotlardan Madaniy meros agentligi tizimidagi muzeylar faoliyatini tashkil etishda foydalanilgan (Madaniy meros agentligining 2025-yil 16-dekabrda 04-07/5042-sonli ma‘lumotnomasi). Aniqlangan ma‘lumotlar muzey ekspozitsiyalarini qadimgi dunyo sivilizatsiyalari o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatuvchi yangi dalillar bilan boyitish imkonini bergan.

20-yuzyillikning ikkinchi yarmida arab tarixshunosligida “Avesto” va zardushtiylikni qiyosiy-diniy metod asosida o‘rganish ko‘lamining keskin kengayishi mintaqadagi siyosiy jarayonlar, xususan, 1967-yilgi “Olti kunlik urush”dagi mag‘lubiyat ortidan “panarabizm” (arab birligi) mafkurasining chuqur tanazzuli bilan bog‘liq ekanligi, natijada yuzaga kelgan g‘oyaviy bo‘shliqni to‘ldirish hamda islom dinining qadimgi e‘tiqodlardan mutlaq ustunligini ko‘rsatib berishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojning ortishiga doir ilmiy tahlillardan Madaniy meros agentligi tizimidagi muzey ashyolari tavsifini yaratishda foydalanilgan (Madaniy meros agentligining 2025-yil 16-dekabrda 04-07/5042-sonli ma‘lumotnomasi). Tadqiqot natijalari O‘zbekistonning boy madaniy merosini ilmiy dalillar asosida keng ommaga targ‘ib etishga hamda xalqaro madaniy aloqalarni yoritishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 5 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan, 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, xorijiy jurnalda 2 ta maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan manbalar, adabiyotlar ro‘yxati, shartli qisqartmalar hamda ilovalar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 122 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari ko‘rsatilgan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlariga mos kelishi, natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi, nashr etilganligi haqida ma‘lumotlar, dissertatsiya tuzilishi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning 1-bobi **“Arab davlatlarida arxeologiya fanining rivojlanishi va Turon tarixiga munosabat”** deb nomlanadi. Unda arab mamlakatlarida arxeologiya fanining tadrijiy rivojlanish dinamikasi hamda sohaga ixtisoslashgan ilmiy markazlar va oliy ta‘lim muassasalarining faoliyati tahlil etilgan. Shuningdek, bobda 20-yuzyillikning ikkinchi yarmidan bugungi kunga qadar Turonning qadimgi davriga oid arxeologik yodgorliklarning arab tarixshunosligida o‘rganilish darajasi, tadqiqotlarning asosiy maqsadlari va erishilgan ilmiy natijalar tizimli yoritilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Arab arxeologlari ittifoqi faoliyati va Turon tarixiga bo‘lgan qiziqish”* deb nomlanadi. Unda arab mamlakatlarida arxeologik tadqiqotlarning shakllanish bosqichlari hamda “Arab arxeologlari ittifoqi” faoliyati yoritilgan. Shu bilan birga, arab tarixshunosligida “Turon” tushunchasining ilmiy talqini, mintaqaning qadimgi tarixini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning yuzaga kelish omillari va tadqiqotchilarning metodologik yondashuvlari ochib berilgan. Shuningdek, mazkur yo‘nalishga ixtisoslashgan ilmiy markazlar va olimlar faoliyati, mavzuga doir fundamental asarlarning mazmun-mohiyati tahlil etilgan.

Turon tarixiga oid masalalarni yoritishdan avval, arab dunyosida arxeologiya fani va ilmiy-tadqiqot markazlarining shakllanish jarayonini davrlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonni shartli ravishda ikki asosiy bosqichga ajratish mumkin:

*Birinchi bosqich* – (18-yuzyillik oxiri – 20-yuzyillik o‘rtalari) Yevropa mustamlakachiligi va xorijiy olimlar tadqiqotlariga asoslanadi. Bu davrda asosiy e‘tibor mahalliy tarixni chuqur o‘rganishga emas, balki mustamlaka siyosatini yuritish va G‘arb muzeylarini noyob eksponatlar bilan boyitishga qaratilgan edi. Napoleon Bonapartning 1798-yildagi yurishi davomida tashkil etilgan “Misr

instituti” faoliyati va 29 jildlik “Misr tavsifi”<sup>5</sup> asarining yaratilishi mazkur yo‘nalishdagi ilk tadqiqotlardan biri hisoblanadi.

*Ikkinchi bosqich* – 20-yuzyillikning ikkinchi yarmidan boshlangan ushbu bosqich arab davlatlarining mustaqillikka erishishi va milliy kadrlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Milliy ilmiy markazlar va universitetlarning tashkil etilishi natijasida tadqiqotlar ko‘lami kengaydi. Ushbu bosqichda asosiy e‘tibor xorijiy muzeylarni boyitish emas, balki milliy tarixni qayta tiklash va madaniy merosni saqlab qolishga qaratildi.

Xususan, 1994-yilda Misr, Saudiya Arabistoni va Sudan olimlari tashabbusi bilan ilgari surilgan g‘oya asosida 1998-yilda o‘z faoliyatini boshlagan “Arab arxeologlari ittifoqi” sohadagi integratsiyani kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Uyushma tomonidan muntazam o‘tkazib kelinayotgan xalqaro ilmiy anjumanlar materiallarining<sup>6</sup> tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularda Markaziy Osiyo qadimgi tarixi bilan shug‘ullanuvchi arab olimlarining tadqiqotlari ham salmoqli o‘rin egallaydi.

Shu bilan birga, sohadagi eng so‘nggi kashfiyotlar va tahliliy xulosalar qator nufuzli xalqaro nashrlarda keng yoritib borilmoqda. Ular orasida Arabiston yarim orolining moddiy madaniyati va yozuvlariga ixtisoslashgan “Arabian Archaeology and Epigraphy”<sup>7</sup> (Arab arxeologiyasi va epigrafikasi), misrshunoslik sohasidagi yetakchi nashr “Journal of Egyptian Archaeology”<sup>8</sup> (Misr arxeologiyasi jurnali) hamda mintaqadagi akademik salohiyatni namoyon etuvchi “Journal of the Faculty of Archaeology, Cairo University”<sup>9</sup> (Qohira universiteti Arxeologiya fakulteti jurnali) jurnallarini alohida qayd etish joiz. Garchi ushbu tadqiqotlarning aksariyati bevosita Turon tarixiga bag‘ishlanmagan bo‘lsa-da, ularda mintaqqa o‘tmishi bilan bog‘liq muayyan jihatlarning uchrashi arab olimlarining Turonning qadimgi davrlariga oid masalalarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishidan dalolat beradi.

Ta’kidlash joizki, arab davlatlarida<sup>10</sup> Turonning bevosita qadimgi tarixi nisbatan kam o‘rganilgan mavzu bo‘lib, tadqiqotlar asosan islomlashuv davri va undan keyingi jarayonlarga qaratilgan edi. Biroq 20-yuzyillik oxiridan boshlab, Markaziy Osiyo respublikalarining mustaqillikka erishishi va arab mamlakatlarida milliy arxeologiya maktablarining rivojlanishi natijasida bu yo‘nalishga e‘tibor kuchaydi. Sovet davridagi mafkuraviy va hududiy yopiqlik siyosati arab tadqiqotchilarining mintaqaga kirishini cheklagan bo‘lsa, mustaqillik yillarida tarixiy-diniy mushtaraklik omili ilmiy hamkorlikning faollashuviga turtki berdi. Natijada arxiv va manbalarni o‘rganish imkoniyatlari kengayib, Turon tarixi arab tarixshunosligida alohida tadqiqot obyekti sifatida shakllana boshladi.

---

<sup>5</sup> Description de l’Égypte. Recueil des observations et des recherches qui ont été faites en Égypte pendant l’expédition de l’armée française / publié par les ordres de Napoléon Bonaparte. – Paris: Imprimerie impériale, 1809 – 1828. – 724 p.

<sup>6</sup> <https://jguaa.journals.ekb.eg/> (Arab arxeologlari ittifoqining rasmiy nashri)

<sup>7</sup> <https://onlinelibrary.wiley.com/journal/> (Arab arxeologiyasi va epigrafikasi jurnalining rasmiy sayti)

<sup>8</sup> <https://www.ees.ac.uk/our-cause/publications/journal-of-egyptian-archaeology.html> (Misr arxeologiyasi jurnalining rasmiy sayti)

<sup>9</sup> <http://fa-arch.cu.edu.eg/en/index.html> (Qohira universiteti arxeologiya fakulteti rasmiy sayti)

<sup>10</sup> Arab davlatlari — Afrikaning shimoli va Osiyoning g‘arbiy qismida joylashgan 22 ta davlatdan iborat; *Batafsil qarang*: Ikromov Sh. Mustaqil O‘zbekistondagi transformatsiya jarayonlarining arab davlatlarida yoritilishi: Tarix fan. b-cha falsafa dokt. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2022. – B. 16-17.

Arab tilidagi tadqiqotlarda mintaqaning tarixiy-geografik nomi sifatida Turon (طوران), Turkiston (تركستان), Movarounnahr (بلاد ما وراء النهر), G'arbiy Turkiston (تركستان الغربية) va Markaziy Osiyo (آسيا الوسطى) atamaları qo'llaniladi.

Xususan, saudiyalik Said Abdulmo'min Said Akrom o'zining 19–20-yuzyilliklar Turon tarixiga bag'ishlangan “Turon (Turkiston) tarixining muhim voqealari”<sup>11</sup> asarida “Turon” atamasiga ta'rif berib, geografik jihatdan ushbu hudud g'arbda Kaspiy dengizi va Ural tog'laridan sharqda Xitoy devorigacha, shimolda Sibir va Mo'g'ulistondan janubda Eron, Afg'oniston, Hindiston va Tibetgacha cho'zilgan keng makonni egallashi hamda umumiy maydoni 5,607,013 km<sup>2</sup> ekanligi qayd etgan. Muallif o'z qarashlarida “Turkiston” atamasi asosan o'lkaning Rossiya imperiyasi tomonidan egallanishidan so'ng keng muomalaga kiritilganini ta'kidlaydi. Biroq, boshqa ilmiy manbalarda, xususan, 7-yuzyillikka oid arxeologik topilmalar va yozma yodgorliklarda “Turkiston” toponimining uchrashi, bu atamaning tarixiy ildizlari 19-yuzyillikdan ancha avvalgi davrlarga borib taqalishini tasdiqlaydi<sup>12</sup>.

Arab davlatlarida Turon tarixining o'rganilishiga bir qator omillar sabab bo'lgan. Nodir Vasirning “Movarounnahr: Islom fathidan Rossiya bosqiniga qadar”<sup>13</sup> nomli tadqiqotida ta'kidlanishicha, Turon 7-yuzyillikdan boshlab Islom olami bilan mustahkam aloqalar o'rnatgan va Islom sivilizatsiyasining ajralmas qismiga aylangan. Buxoro, Samarqand va Xiva kabi markazlar musulmon ilm-fani rivojida muhim o'rin tutgani sababli arab olimlari mintaqaning boy madaniy merosini chuqur o'rganishga ehtiyoj mavjudligini qayd etadilar.

Muhammad Muso Sharif esa Turon tarixini tadqiq etishning uch asosiy sababini ko'rsatadi: birinchisi, musulmon jamoasida mintaqa tarixi, uning allomalari va tarixiy markazlari haqida yetarli bilimlarning mavjud emasligi; ikkinchisi, Turondan chiqqan minglab olimlarning Islom sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasini yoritish zarurati; uchinchisi, o'tmishda ilm va din yo'lida xizmat qilgan zotlarga hurmat va e'tirof bildirish ehtiyoji<sup>14</sup>. Bu yondashuv arab tarixshunosligida Turonning ilmiy-madaniy merosini qayta baholashga bo'lgan intilish bilan izohlanadi.

Arab davlatlarida Turonning qadimgi davri bo'yicha maxsus monografik tadqiqotlar hali yetarli darajada emas. Buning asosiy sabablaridan biri – aksariyat arab olimlarining birlamchi arxeologik manbalarni o'rganish uchun zarur bo'lgan tillarni (rus va o'zbek) bilmasligi hamda asosan ingliz tilidagi adabiyotlarga tayanishidir. So'nggi yillarda O'zbekiston va arab mamlakatlari o'rtasida kuchayib borayotgan ilmiy hamkorlik kelgusida ushbu bo'shliqni to'ldirishga va mavzuning arab ilmiy muhitida chuqur tadqiq etilishiga zamin yaratadi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi “*Turondagi qadimgi davr manzilgohlarining arab tarixshunosligida yoritilishi*” deb nomlanib, Turon hududidagi eng qadimgi davrga, xususan, tosh va bronza davrlariga oid manzilgohlar hamda ilk shaharlashuv

<sup>11</sup> السيد عبد المؤمن السيد أكرم. أضواء على تاريخ توران (تركستان). رابطة العالم الإسلامي- مكة المكرمة. – ص. 220.

<sup>12</sup> Камолитдин Ш. К вопросу об употреблении географических названий “Мавераннахр” и “Туркестан” // O'zbekiston tarixi. – 2002. – № 4. – С. 61-68.

<sup>13</sup> نادر الوثير. بلاد ما وراء النهر من الفتح الإسلامي إلى الاحتلال الروسي. الطبعة الأولى: 1445 هـ - 2024 م. – ص. 676.

<sup>14</sup> محمد بن موسى الشريفي. علماء آسيا الوسطى (التركستان) بين الماضي والحاضر. دار الأندلس الخضراء للنشر والتوزيع. 2009. – ص. 3.

o'choqlarining arab tarixshunosligidagi o'rni tahlil etilgan. Shuningdek, ushbu yo'nalishda izlanish olib borgan arab olimlarining ilmiy qarashlari, ularning mintaqa qadimgi madaniyatiga bergan baholari va yondashuvlari tizimli o'rganilgan. Tadqiqotda alohida e'tibor qiyosiy tahlilga qaratilgan bo'lib, arab davlatlari hududidagi qadimgi yodgorliklar bilan Turondagi ayni bir davrga mansub manzilgohlarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari hamda moddiy madaniyat namunalariidagi mushtarakliklar ochib berilgan.

Arab tadqiqotchilari tomonidan Turonning aynan qadimgi davriga oid manzilgohlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar asosan 21-yuzyillikdan boshlangan. Biroq, mazkur yo'nalishning arab tarixshunosligi uchun yangi ekanligi va endigina shakllanayotgani sababli, bu boradagi tadqiqotlarni davriy ketma-ketlikda tizimli tahlil qilish ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Hozirgi kunda mavjud tadqiqotlar Turonning qadimgi tarixining barcha bosqichlarini birdek qamrab olmagan.

Arab tadqiqotchilarining Turondagi qadimgi davr manzilgohlarini tahlil qilishdagi asosiy metodologik yondashuvi arxeologik yodgorliklarning joylashuvi, dafn marosimlari, topilmalarning o'xshash va farqli jihatlari o'zaro qiyosiy tahlil qilishga asoslangan. Bunday yondashuv arxeologiya fanining asosiy tadqiqot uslubi hisoblanib, dunyoning ko'plab davlatlarida foydalaniladi<sup>15</sup>. Bunda, asosan, Turon hududidagi manzilgohlar tegishli davrga oid arab davlatlari hududidagi yodgorliklar bilan solishtiriladi.

Misrlik tadqiqotchilar Abulhasan Bakriy va Ahmad Said o'z ishlarida O'zbekistondagi Teshiktosh hamda Iroqdagi Shanidar manzilgohlarini o'zaro qiyoslab, Teshiktoshni Shanidar madaniyatining bir tarmog'i sifatida talqin qilishga uringanlar<sup>16</sup>. Biroq, so'nggi yillardagi milliy<sup>17</sup> va xorijiy tadqiqotlar<sup>18</sup> va yangi arxeologik ma'lumotlarga asoslanmagan bunday yondashuvni ilmiy jihatdan to'liq asosli deb bo'lmaydi.

Teshiktosh atrofida Xatak, Teshiktosh-2, 3 kabi yangi manzilgohlarning aniqlanishi hamda tosh qurollari (litik) majmualarining qayta tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Teshiktosh aholisining xo'jalik faoliyati va turmush tarzi Shanidardan tubdan farq qiladi. Qolaversa, xronologik ma'lumotlar ham Teshiktoshdagi eng quyi madaniy qatlamlarning shakllanish davri Shanidarga nisbatan qadimiyroq ekanligini tasdiqlaydi. Shu bois, Teshiktoshni g'arbdan sharqqa tomon aholi migratsiyaning shunchaki oraliq nuqtasi emas, balki Boysuntog' tizmasida shakllangan o'ziga xos,

<sup>15</sup> *Batafsil qarang:* Renfrew C. *Archaeology: Theories, Methods, and Practice* / C. Renfrew, P. Bahn. – 7th ed. – London: Thames & Hudson, 2016. – 672 p.

<sup>16</sup> Bakry A., Saied A. Teshiktash and Shanidar: Middle paleolithic caves in Uzbekistan and Iraq compared // *مجلة كلية الآداب جامعة الإسكندرية*. – 2021. – P. 1 – 35.

<sup>17</sup> Сулейманов Р.Х. Еще раз о переходе от нижнего палеолита к среднему палеолиту в Центральной Азии // *Ўзбекистон археологияси*. – 2018. – № 2 (17). – С. 63-75.; Сайфуллаев Б. Тешиктош гори ва унинг Марказий Осиё палеолитшunosлигида тутган ўрни // *Ўзбекистон археологияси*. – 2018. – № 2 (17). – Б. 7.; Nishiaki Y., Aripdjanov O. A new look at the Middle Paleolithic lithic industry of the Teshik-Tash Cave, Uzbekistan, West Central Asia // *Quaternary International*. – 2021. – Vol. 596. – P. 22-37.

<sup>18</sup> Francis H. *Les civilisations du paléolithique*. – Paris: Presses Universitaires de France, 1982. – 128 p.; Алекшин В. А. Мустьерские погребения Передней и Средней Азии // *Археология Средней Азии, Сибири и Кавказа*. – Москва, 1993. – С. 3-8.; Varoujan S. Shanidar Cave – An Interesting Archaeological Site in the Kurdistan Region, Iraq // *Journal of Science and Engineering*. – 2019. – Vol. 3, No. 2. – P. 7-8.; Teshik-Tash // *The Wiley-Blackwell Encyclopedia of Human Evolution* / ed. by B. Wood. – Chichester: Wiley-Blackwell, – 2013. – P. 780.

mahalliy madaniy-hududiy birlikning mustaqil markazi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Turon hududida o'troq turmush tarzi va ishlab chiqaruvchi xo'jalikning shakllanish jarayonlarini tadqiq etishda Janubiy Turkmanistondagi mil. avv. 6-mingyillikka oid Joytun madaniyati muhim o'rin tutadi. Mazkur yodgorlik haqidagi dastlabki ma'lumotlar 20-yuzyillikning boshlarida R. Pompelli tomonidan qayd etilgan bo'lsa-da<sup>19</sup>, u 1946-yildan e'tiboran akademik M.E. Masson rahbarligidagi ekspeditsiya tomonidan to'liq ilmiy asosda o'rganila boshlandi<sup>20</sup>. Natijada, 1950-yillarda fanga "Joytun madaniyati" tushunchasi kiritildi. Keyingi davrlarda Rossiya va Turkmaniston arxeologlarining hamkorlikdagi izlanishlari ushbu madaniyatga oid yana qator yangi yodgorliklarni aniqlash imkonini berdi.

Arab tarixshunosligida ushbu masala misrlik olim Abulhasan Bakriy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Muallif o'zining "Janubiy Turkmanistondagi Joytun madaniyatining vujudga kelishi: Neolit davrida Yaqin Sharq madaniyatlarining o'zaro ta'siri" nomli maqolasida<sup>21</sup> Joytun madaniyatini Yaqin Sharq neolitining shimoli-sharqiy tarmog'i sifatida baholaydi. Biroq, bu kabi yondashuv Joytun madaniyatini faqat tashqi ta'sir mahsuli sifatida ko'rsatishga urinish bo'lib, Turondagi mahalliy madaniy rivojlanish jarayonlarini inkor etishga olib keladi. Shu bois, olimning xulosalarini biryozqlama va bahsli deb hisoblash mumkin.

Abulhasan Bakriyning navbatdagi tadqiqotlari Turonning eneolit davriga mansub Anov madaniyati san'ati, xususan, antropomorf (odamsimon) haykalchalarning ilmiy tahliliga qaratilgan. "Qadimgi davrda Anov madaniyatidagi inson haykallari"<sup>22</sup> nomli tadqiqotda Joytun (neolit) va Anov (eneolit-bronza) davrlariga oid haykalchalar morfologik tuzilishi, tayyorlanish materiali, ishlash texnologiyasi hamda topilma o'rni asosida tasnif etilgan.

Muallif ushbu san'at namunalarida vaqt o'tishi bilan yuz bergan tadrijiy o'zgarishlarni kuzatib, Anov madaniyatini qadimgi Yaqin Sharq an'analari bilan bevosita bog'lashga urinadi. Biroq, mazkur yondashuv madaniyatning ichki rivojlanish qonuniyatlarini e'tibordan chetda qoldirib, jarayonni faqat tashqi madaniy ta'sir bilan izohlashga moyilligi sababli bahsli hisoblanadi. Shunga qaramay, ushbu tadqiqot Anov madaniyati aholisining ijtimoiy hayoti, diniy-mifologik qarashlari va tafakkurini yoritishda muayyan ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Turonning eneolit davri ham Abulhasan Bakriy tomonidan tadqiq etilgan. Uning nomzodlik dissertatsiyasida (Eron va Janubiy Turkmaniston madaniyatlarining o'zaro aloqadorligi masalalari: eneolit davri keramikasi va tosh buyumlaridagi hayvonlar tasvirlarini talqin qilish)<sup>23</sup> Eron va Janubiy Turkmaniston madaniyatlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar eneolit davriga oid sopol va tosh buyumlardagi zoomorf tasvirlar tahlili orqali yoritilgan.

<sup>19</sup> Pumpelly R. Explorations in Turkestan: Prehistoric Civilizations of Anau / R. Pumpelly. – Washington: Carnegie Institution of Washington, 1908. – 2 vol. (Carnegie Institution of Washington. Publication no. 73). – 402 p.

<sup>20</sup> *Batafsil qarang:* Труды Южно-Туркменской археологической комплексной экспедиции (ЮТАКЭ). Т. 1. – Ашхабад: Изд-во Туркменского филиала АН СССР, 1949. – 424 с.

<sup>21</sup> أبو الحسن محمود بكرى موسى. حضارة جيتون بجنوب تركمنستان (آسيا الوسطى) مشكلة الأصل في إطار تأثرها بحضارات الشرق الأدنى خلال العصر الحجري الحديث. دراسات في آثار الوطن العربي. – ص. 50 – 24.

<sup>22</sup> أبو الحسن محمود بكرى. التماثيل الأدمية في حضارة أناو (جنوب تركمنستان) في عصور ما قبل التاريخ. دراسات في آثار الوطن العربي. – ص. 31.

<sup>23</sup> Бакри А. Вопросы взаимосвязи культур Ирана и Южной Туркмении: интерпретация изображений животных на керамических и каменных изделиях эпохи энеолита: дисс. ... для ... к.и.н. – Москва, 2005. – 208 с.

Tadqiqotda tasvirlarning morfologik tuzilishi, ishlash texnologiyasi va semantik mazmuni qiyosiy o'rganilib, ular qadimgi aholining diniy-ijtimoiy tasavvurlari, totemistik qarashlari va marosimiy an'alarini tiklashda muhim manba sifatida baholangan. Bakriy zoomorf motivlarning tarqalish hududi, rivojlanish dinamikasi hamda neolit va eneolit davrlari o'rtasidagi uzviylikni asoslab bergan. Olimning xulosasiga ko'ra, Eronning ayrim hududlaridan Janubiy Turkmanistonga aholi ko'chishi yuz bergan bo'lsa-da, ko'chib kelgan guruhlar vaqt o'tishi bilan mahalliy aholi tarkibiga singib, assimilatsiya bo'lib ketgan. Mazkur tadqiqot Turon va Eron o'rtasidagi madaniy aloqalarning murakkab va ikki tomonlama xarakterga ega ekanligini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Turon sivilizatsiyasining yirik markazi bo'lmish Gono'rtepa ham arab tarixshunosligida tadqiq qilingan va Misrdagi Avaris shahri o'rtasidagi madaniy-tarixiy jarayonlar qiyosiy tahlil etilgan<sup>24</sup>. Ishda mil. avv. II mingyillikda har ikki markazning xalqaro savdo va siyosiy jarayonlardagi yetakchi o'rni, xususan, nekropollar tuzilishi, dafn marosimlari va qabr ashyolari o'rtasidagi jiddiy o'xshashliklar mavjudligi asoslab berilgan.

Muallif mazkur o'xshashliklarni tasodifiy hodisa emas, balki chuqur tarixiy ildizlarga ega deb baholaydi. Uning fikricha, bu aloqalar xalqaro savdo tizimi va "jangchi-savdogarlar" deb ataluvchi qatlam faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular nafaqat iqtisodiy manfaat, balki marosimiy an'alar, me'moriy uslublar va dunyoqarashning keng hududlarga yoyilishida muhim vositachi bo'lganlar.

Tadqiqot metodologiyasi moddiy madaniyat namunalarini qiyosiy o'rganishga asoslanadi. Unda dafn inshootlari, marosim elementlari, qurol-yarog', sopol buyumlar va taqinchoqlarning tipologik yaqinligi sinchiklab tadqiq etilgan. Shuningdek, Bakriy arxeologik ma'lumotlarni Mesopotamiya mixxat yozuvlari (Marxashi podsholigi) va Misr manbalari (giksoslar poytaxti – Avaris) bilan o'zaro bog'lash orqali ikki makonning tarixiy aloqadorligini tiklashga harakat qilgan.

Shunga qaramay, tadqiqotda ayrim bahsli jihatlar ko'zga tashlanadi. Muallif asosan arxeologik materiallarga tayanib, yozma manbalarni kamroq jalb etgani, asosiy ilmiy nashrlardan<sup>25</sup> foydalanmagani sababli, giksoslar va Baqtriya-Marg'iyona arxeologik majmuasi elitalari o'rtasidagi bevosita munosabatlarga doir xulosalar yetarli darajada asoslanmagan. Qolaversa, ishda Turonning qadimgi madaniy rivojlanishida Yaqin Sharqning ta'siri bo'rttirib ko'rsatilgan bo'lib, bu mintaqaviy madaniyatning mustaqil taraqqiyot omillarini to'liq aks ettirmaydi.

Bundan tashqari, arab tarixshunosligida Turonning bronza davriga oid tadqiqotlar ham mavjud bo'lib, ularda asosan mintaqaning Qadimgi Hindiston sivilizatsiyasi bilan o'zaro madaniy va savdo aloqalari tahlil qilingan<sup>26</sup>. Shu o'rinda, arab mamlakatlari muzey kolleksiyalarida Turonning qadimgi davriga oid nodir eksponatlarning

<sup>24</sup> Бакри А. Аварис и Гонур // Древность: историческое знание и специфика источника: материалы V Международной научной конференции, посвященной памяти Э.А. Грантовского и Д.С. Раевского. – Москва: ИВ РАН, – 2011. – Вып. 5. – С. 19-29.

<sup>25</sup> Naville E. The Shrine of Saft el Henneh and the Land of Goshen. – London: Egypt Exploration Fund, 1887. – 68 p.; Bietak M. Avaris, the Capital of the Hyksos: New Excavation Results / M. Bietak. – London: British Museum Press, 1996. – 124 p.; Труды Маргианской археологической экспедиции. Том 2 / Гл. ред. В.И. Сариниди – Москва: Старый сад. 2008. – 253 с.

<sup>26</sup> Bakry A. Prehistoric Contacts between Central Asia and India // Труды Маргианской археологической экспедиции. – Т. 6 / отв. ред. Н.А. Дубова. – Москва: Старый сад, 2016. – С. 422-435.

saqlanishi ham diqqatga sazovordir. Xususan, Birlashgan Arab Amirliklaridagi Luvr Abu Dabi muzeyidan o‘rin olgan va jahon ilm-fanida “Baqtriya malikasi”<sup>27</sup> nomi bilan mashhur bo‘lgan haykalcha bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, arab dunyosi olimlari tomonidan Turonning qadimgi tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, ularning ko‘lami hozircha cheklangan. Shunga qaramay, 21-yuzyillik boshlaridan buyon ushbu yo‘nalishda ilmiy qiziqish va faollikning ortib borayotgani kuzatilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda ustuvor ravishda qiyosiy-tarixiy tahlil metodidan foydalanilgan bo‘lib, asosiy e’tibor turli sivilizatsiyalar o‘rtasidagi madaniy-tarixiy aloqalarni aniqlashga qaratilgan.

Biroq, ushbu ilmiy ishlarning jiddiy kamchiligi sifatida, ularda Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston olimlari tomonidan olib borilayotgan so‘nggi arxeologik va tarixiy izlanishlar natijalarining yetarlicha hisobga olinmasligini ko‘rsatish mumkin. Qolaversa, Turon hududida qadimgi davrga oid yuzlab yodgorliklar mavjud bo‘lishiga qaramay, arab tarixshunosligida ularning faqat sanoqlisigina tadqiqot obyektiga aylangan.

Bu holat Turon madaniyatining ichki rivojlanish dinamikasiga oid muhim dalillarning nazardan chetda qolishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada, tahlilni faqatgina Qadimgi Yaqin Sharq yodgorliklari bilan qiyoslash asosida olib borish, Turon sivilizatsiyasining kelib chiqishi va taraqqiyot bosqichlari haqida biryoqlama, ba’zi o‘rinlarda esa noto‘g‘ri xulosalar chiqarilishiga olib kelishi mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Arab tarixshunosligida Turondagi ilk davlatchilik shakllari hamda uning ahamoniylar va yunon-makedonlarga qaramlik davri masalasi”** deb nomlangan. Ushbu bobda Turon hududidagi dastlabki shahar-davlatlarning shakllanish jarayonlari, ular xususidagi yozma manbalar va arxeologik ma’lumotlarning arab davlatlari tadqiqotlaridagi talqini atroflicha yoritilgan. Shuningdek, mintaqaning Ahamoniylar imperiyasi, Yunon-makedonlar va Salavkiylar tarkibidagi siyosiy-ijtimoiy tarixi, mazkur davrlarning arab tarixshunosligida aks etish darajasi hamda tadqiqotchilarning yondashuvlari tahlil qilingan.

Ushbu bobning *“Turonning Ahamoniylar istilosiga qadar tarixi va imperiyaga qaramlik davri talqini”* deb nomlangan paragrafida arab olimlarining Turon hududidagi ilk davlatchilik masalasiga doir ilmiy qarashlari o‘rganilgan. Shuningdek, bo‘limda Ahamoniylar imperiyasi hukmronligi davrida mintaqadagi ma’muriy boshqaruv tizimi, siyosiy jarayonlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga oid ma’lumotlarning arab tarixshunosligida yoritilish darajasi tahlil etilgan.

Arab tarixshunosligida Turonning Ahamoniylargacha bo‘lgan davrdagi davlatchiligini o‘rganish ikki asosiy yo‘nalishda talqin etiladi: o‘rta asr mumtoz manbalaridagi an’anaviy qarashlar va zamonaviy ilmiy yondashuvlar.

Qohira universiteti olimi A. Bakriyning 2016-yildagi tadqiqotlarida Baqtriya-Marg‘iyona arxeologik majmuasining yirik markazlari – Jarkuton, Gono‘rtepa va Oltintepa yodgorliklari me’moriy-rejaviy tuzilishi hamda moddiy madaniyati

---

<sup>27</sup> Female figure called “Bactrian princess” (LAD 2011.024) [Electronic resource] // Louvre Abu Dhabi Collection. <https://collection.louvreabudhabi.ae/en/object/female-figure-called-bactrian-princess-100004965>

nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil etilgan<sup>28</sup>. Muallif saroy majmualari, ma'muriy binolar, ibodatxonalar va Harappa tipidagi muhrlarni Turon hududida shakllangan ilk davlatchilikning muhim belgilari sifatida baholaydi. Shuningdek, ushbu topilmalar mintaqaning Hind vodiysi sivilizatsiyasi bilan savdo-madaniy aloqalari mavjudligidan dalolat beruvchi asosiy omillar sifatida talqin qilingan.

Biroq, mazkur tadqiqotlar hali tizimli va yaxlit xarakterga ega emas. Shu bois, Turonning Ahamoniylargacha bo'lgan davrdagi davlatchiligi masalasi arab tarixshunosligida alohida fundamental ilmiy muammo sifatida to'liq o'rganilmaganligicha qolmoqda.

Zamonaviy arab tarixshunosligida Turonning Ahamoniylar hukmronligi davridagi tarixi fundamental darajada tadqiq etilmagan bo'lib, ilmiy e'tibor asosan imperiyaning markaziy siyosatiga qaratilgan. Natijada, mil. avv. 6–4-yuzyilliklardagi Turon tarixi mustaqil ilmiy mavzu sifatida emas, balki imperiyaning shimoli-sharqiy satrapliklari (Baqtriya, So'g'd, Marg'iyona) hamda "sak qabilalari bilan munosabatlar" masalasi doirasida yoritish bilan cheklanilgan. Arab tadqiqotchilarining o'zlari ham bu borada birlamchi arabcha manbalarning yo'qligini e'tirof etadilar. Xususan, A. Umar Ibrohim o'z izlanishlarida aksariyat hollarda xorijiy adabiyotlarga tayanishga majbur bo'lganini qayd etadi<sup>29</sup>.

Ushbu davrni o'rganishda arab tadqiqotlarining manbaviy asosini uch guruhga ajratish mumkin:

1. *Yunon-rim manbalarining tarjimalari*<sup>30</sup>;
2. *Behistun yozuvlariga oid tadqiqotlar*<sup>31</sup>;
3. *Xorijiy adabiyotlar*<sup>32</sup>.

Yuqorida qayd etilgan yirik tadqiqotlardan tashqari Hala Abdul Amir Muhsin<sup>33</sup>, Xoris Bastoniy<sup>34</sup>, Shokir Majid Shatriy<sup>35</sup>, Jamil Abdul Karim Muhammad<sup>36</sup>, Hasan Karim<sup>37</sup>, Muhammad Bayumiy<sup>38</sup> kabi qator arab tadqiqotchilarining asarlari ham Ahamoniylar davri tarixining turli jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu manbalarni tahlil etishda muammoviy-mavzuiy yondashuvni qo'llash hamda Turonga doir tarixiy dalillarni quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha tasniflash maqsadga muvofiq:

<sup>28</sup> Bakry A. Prehistoric Contacts between Central Asia and India // Труды Маргианской археологической экспедиции. – Т. 6. – Москва: 2016. – С. 422-435.

<sup>29</sup> علي عمر إبراهيم. دارا الأول حكمه ومنجزاته. مجلة آداب الحديثة - العدد الخامس عشر. 2022. ص. 388-391.  
<sup>30</sup> حسان مخائيل إسحق. الجغرافيا: سبعة عشر كتابا في جزأين. الجزء الثاني. 2017. ص. 225؛ عبد الإله الملاح. تاريخ هيرودوت. المجمع الثقافي أبوظبي. 2001م. - ص. 747.

<sup>31</sup> Ramazan Ziyar Sadiq. Ta'sirat funun al-Sharq al-Adna al-Qadim fi naqsh Bistun li-l-malik Dariyush al-Awwal (522–486 BCE). Magazine of Historical Studies and Archaeology. 2023. N. 86. – P. 153 – 220.

<sup>32</sup> بيير بريانت. تاريخ الإمبراطورية الفارسية من قورش إلى الإسكندر. 2015. ص. 388.

<sup>33</sup> هاله عبد الأمير محسن. الإمبراطورية الإخمينية (509-331 ق.م) دراسة تاريخية في عوامل الضعف. 2022. ص. 252.

<sup>34</sup> حارث البستاني. الأخمينيون - الإمبراطورية الفارسية الأولى. 2018. ص. 140.

<sup>35</sup> شاكرا الشاطري. تأريخ الإمبراطورية الفارسية القديمة. 2015. ص. 212.

<sup>36</sup> جميلة عبد الكريم محمد. قورنائية والفرس الأخمينيون منذ انشاء قوريني حتى سقوط اسرة باتوس (بيروت: دار النهضة العربية، إصدارات الجوهرة، 1996م. ص. 456.

<sup>37</sup> حسن كريم الجاف. الوجيز في تاريخ إيران، بغداد: بيت الحكمة. 2003. ص. 252.

<sup>38</sup> محمد بيومي مهران. الحضارة المصرية القديمة الحياة الاجتماعية والسياسية والعسكرية والقضائية والدينية، ط، الإسكندرية: دار المعرفة الجامعية، 1989. ص. 578.

I. Boshqaruv tizimi va siyosiy tarix aks etgan tadqiqotlar. Mazkur yo‘nalishda Hala Abdul Amir Muhsin<sup>39</sup>, Muhammadin Ahmad Solih<sup>40</sup>, Ala Umar Ibrohim<sup>41</sup>, kabi olimlar tadqiqotlar olib borgan.

II. Ijtimoiy hayot tarixiga oid ma‘lumotlar aks etgan tadqiqotlar: Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda Ahamoniylar imperiyasi tarkibidagi hududlarning aholisi, ijtimoiy tarkibi, savdo-pul munosabatlari va soliq siyosati kabi masalalar o‘rganiladi.

III. Iqtisodiy hayot aks etgan tadqiqotlar. Ahamoniylar saltanatidagi iqtisodiy munosabatlar, jumladan, tanga pullar muomalasi, ko‘pincha tarixshunoslikda rivojlanish va markazlashuv belgisi sifatida yoritiladi. Ammo bu jarayonlarning zabt etilgan xalqlarga, jumladan, Turon mintaqasiga ta‘siri ko‘pincha e‘tibordan chetda qoladi.

Turon hududining Ahamoniylarga qaramlik davri zamonaviy arab tarixshunosligida alohida va mustaqil tadqiqot obyekti sifatida shakllanmagan. Aksariyat arab tadqiqotchilarining e‘tibori Ahamoniylar tarixining umumiy jihatlariga, xususan, ularning Yaqin Sharq va Misrdagi faoliyatiga qaratilgan. Shu sababli, Turon mintaqasining tarixiga oid ma‘lumotlar ko‘pincha ikkinchi darajali yoki bilvosita ravishda qayd etilgan. Bu esa mintaqadagi o‘ziga xos tarixiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish imkonini bermay, uni imperiyaning chekka hududi (periferiyasi) sifatida qoldirgan. Umumiy asarlarda Turonga oid keltirilgan ma‘lumotlar ko‘pincha maxsus tahlilga asoslanmagan, bu esa mustaqil ilmiy xulosalar chiqarish uchun yetarli asos bo‘la olmaydi.

Shunga qaramay, Ahamoniylar tarixiga bag‘ishlangan ushbu umumiy tadqiqotlar Turon tarixini o‘rganishda muhim bilvosita manba bo‘lib xizmat qiladi. Ularni tanqidiy tahlil qilish orqali bir qator muhim ma‘lumotlarni ajratib olish mumkin. Iqtisodiy jihatdan, arab tarixshunosligi xalqaro savdo yo‘llari, jumladan, Buyuk Ipak yo‘lining dastlabki shakllanishidagi Turonning roli, pul-moliya tizimining joriy etilishi va uning mahalliy iqtisodiyotga ta‘sirini yoritishda muhim qadamlar qo‘ygan. Siyosiy-ma‘muriy jihatdan, Doro I islohotlari, satraplik tizimining tashkil topishi va uning Turon mintaqasidagi siyosiy muvozanatni ta‘minlashdagi roli, shuningdek, Frada kabi mahalliy yetakchilarning ozodlik kurashlari haqidagi talqinlar e‘tiborga loyiqdir. Madaniy jihatdan esa, Behistun yozuvlari kabi manbalar tahlili orqali Turon xalqlarining imperiya doirasidagi madaniy integratsiyasi va o‘zaro uyg‘unlik jarayonlari haqida muayyan tasavvurlar shakllantirilgan.

Ushbu bobning “*Yunon-makedonlar hukmronligi davrida Turon: asosiy qarashlar va yondashuvlar*” nomli ikkinchi paragrafida Turonning Makedoniyalik Aleksandr boshchiligidagi bosqinlarga ko‘rsatgan qarshiligi, Salavkiylar hukmronligining siyosiy va ma‘muriy xususiyatlari, shuningdek, bu davrda mintaqada ro‘y bergan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar tarixshunoslik manbalari asosida tahlil qilingan.

<sup>39</sup> محسن، هاله عبد الأمير. الإمبراطورية الأخمينية (559–331 ق.م.): دراسة تاريخية في عوامل الضعف والسقوط. أطروحة دكتوراه، جامعة بغداد، كلية الآداب، قسم التاريخ، بإشراف الدكتور جواد مطر الموسوي. 2022. – ص. 252.

<sup>40</sup> محمد أمين أحمد صالح. قيام دولة الفرس الأخمينية وحضارتها. 2021. – ص. 145-154.

<sup>41</sup> علي عمر إبراهيم. دارا الأول حكمه ومنجزاته. مجلة آداب الحديثة - العدد الخامس عشر. 2022. – ص. 388-391.

Makedoniyalik Aleksandr shaxsiyati zamonaviy arab tarixshunosligida tarixiy manbalar, diniy matnlar va adabiy an'analar kesishgan murakkab hodisa sifatida o'rganiladi. Tadqiqotlarda uning nomi turlicha – Al-Iskandar al-Akbar (الإسكندر الأكبر), Makedoniyalik Iskandar (الإسكندر المقدوني), Makedoniyalik Iskandar uchinchi (الإسكندر الثالث المقدوني) kabi shakllarda qo'llanilsa-da, barcha izlanishlar uchun asosiy muammo uning tarixiy siymosini keyingi davrlarda yuzaga kelgan diniy va adabiy talqinlardan ajratish bo'lib qolmoqda.

Mazkur yo'nalishda Rauf Saloma Muso<sup>42</sup>, Jobir Xalil<sup>43</sup>, Hasan Hamza Javad<sup>44</sup>, Said Muhammad Umar<sup>45</sup> kabi arab tadqiqotchilari tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda asosan Makedoniyalik Aleksandr shaxsiyati, uning harbiy yurishlari, istilodan keyingi siyosiy boshqaruv tizimi, ellinistik davrda yuzaga kelgan madaniy jarayonlar va salavkiylar davri tahlil qilingan. Arab tarixshunosligidagi bu ishlar Turonning yunon-makedon va salavkiylar hukmronligi davridagi o'rni va bu jarayonlarning mintaqa hayotiga ta'sirini qayta baholash imkonini beradi.

Aleksandrning Turon hududlarini bo'ysundirish jarayoni faqat harbiy ustunlik bilan emas, balki puxta o'ylangan siyosiy rejalar bilan ham belgilanadi. Shunday muhim qarorlardan biri miloddan avvalgi 327-yilda Baqtriya zodagoni Oksiartning qizi Roksana bilan tuzgan nikohidir. Hasan Hamza Javad bu nikohning siyosiy mazmuniga alohida e'tibor qaratadi<sup>46</sup>. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, ittifoqning asosiy maqsadlari – Baqtriyada siyosiy barqarorlikni ta'minlash, sulolaviy yaqinlashuv orqali mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish hamda Hindiston yurishi arafasida orqa tomondan xavfsizligini mustahkamlashdan iborat bo'lgan.

Mazkur nikoh, shuningdek, yunon-makedonlar bilan mahalliy aholi o'rtasidagi madaniy aloqalarning faollashuviga turtki bergan. Garchi bu ittifoq Aleksandrning vafoti tufayli uzoq davom etmagan bo'lsa-da, u Turon tarixida siyosiy jihatdan muhim o'rin egallagan.

Arab tadqiqotchilarining ushbu davrga doir yana bir muhim qarashi shundan iboratki, ular hozirgacha ilmda keng tarqalgan “yunon madaniyatining ustunligi” tamoyiliga asoslangan an'anaviy yondashuvni tanqidiy qayta ko'rib chiqadilar. Arab tarixshunosligi nuqtai nazaridan, Aleksandrning Sharqqa yurishi natijasida yunon madaniyati mintaqaga bir tomonlama singmagan; aksincha, yunon-makedon zodagonlarining o'zlarini sharqona an'ana va madaniy qadriyatlarni faol o'zlashtirgan. Shunday qilib, bu davr madaniy jarayonlari biryoqlama “ellinlashtirish” emas, balki ikki tomonlama madaniy ta'sir va sintez jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqotning **“Zardushtiylik arab olimlari talqinida: siyosat, ijtimoiy-falsafiy tafakkur va e'tiqod masalasi”** deb nomlangan uchinchi bobida Zardushtiylik dini va “Avesto” kitobiga oid arab ilmiy-falsafiy tafakkuridagi yondashuvlar milliy hamda xorijiy olimlarning tadqiqotlari qiyosiy tahlili asosida yoritilgan.

<sup>42</sup> رءوف سلامة موسى. الإسكندر الأكبر. – ص. 75-82.

<sup>43</sup> Athar alrafedain. – 2022. – Vol. 7, no. 1. – P. 25. // جابر خليل. الإسكندر المقدوني والطريق الى كوكاميل

<sup>44</sup> حسن حمزة جواد. نشوء الدولة السلوقية وقيامها (دراسة تاريخية ٣١٢ - ٦٤ ق.م). رسالة ماجستير، جامعة بغداد، كلية الآداب، قسم التاريخ، 2008م / 1429هـ، بإشراف: الأستاذ الدكتور جواد مطر الموسوي. بغداد. 2008. – ص. 390.

<sup>45</sup> السيد محمد عمار علي. المصاهرات السياسية في المملكة السلوقية. العدد الحادي والأربعون حولية كلية اللغة العربية بالزقازيق. 2013. – ص. 84.

<sup>46</sup> حسن حمزة جواد. نشوء الدولة السلوقية وقيامها (دراسة تاريخية ٣١٢ - ٦٤ ق.م). بغداد. 2008. – ص. 28.

Ushbu bobning “Zardushtiylik dini va “Avesto” da davlat boshqaruvi va ijtimoiy-falsafiy qarashlar borasidagi munozaralar” deb nomlangan birinchi paragrafida arab tadqiqotchilarining Zardushtiylik diniga oid ilmiy izlanishlari tahlil qilingan. Xususan, 20-yuzyillikning ikkinchi yarmidan boshlab mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarga qiziqishning ortishiga sabab bo‘lgan omillar hamda “Avesto” kitobiga nisbatan shakllangan ilmiy-tanqidiy munosabatlar yoritib berilgan.

20-yuzyillik oxiri – 21-yuzyillik boshlarida arab ilmiy muhitida zardushtiylik va “Avesto”ni o‘rganishda yangi bosqich kuzatildi. Mazkur davr tadqiqotlarining o‘ziga xosligi ularning qiyosiy dinshunoslik aspektida olib borilganidir. Bu holat mintaqadagi chuqur mafkuraviy inqiroz (1967-yil voqealari) va dunyoviy millatchilik g‘oyalarining obro‘sizlanishi natijasida yuzaga keldi. Hosil bo‘lgan mafkuraviy bo‘shliqning “islomiy uyg‘onish” bilan to‘ldirilishi zardushtiylikni islom bilan qiyoslash, raddiya berish yoki aksincha, inqiroz ildizlarini o‘tmish merosidan izlash kabi yondashuvlarni shakllantirdi<sup>47</sup>.

Manzur Hayik<sup>48</sup>, Amin Muhammad<sup>49</sup>, Ala’a Ali<sup>50</sup>, Xolid Kabir<sup>51</sup>, Shofe’ Ahmad<sup>52</sup>, Jamshid Yusufiy<sup>53</sup> va Sa’ad Samar<sup>54</sup> kabi arab tadqiqotchilari o‘z ishlarida Zardushtiylik dini hamda “Avesto” kitobiga asosan tarixiy-ilmiy nuqtai nazardan yondashganlar. Jumladan, mazkur tadqiqotlarda Zardushtning shaxsiyati, u yashagan davr muammolari va Turondagi davlatchilik tarixiga oid masalalar atroflicha tahlil qilingan.

Arab tarixshunosligidagi zardushtiylikka oid “Tarixiy-ilmiy yondashuv” asosan dinning kelib chiqishi, asoschisining shaxsi va “Avesto” manbashunosligi kabi tarixiy muammolarga qaratilgan bo‘lib, diniy-aqidaviy masalalarni ikkinchi o‘ringa qo‘yadi. Ushbu yondashuv doirasida arab tadqiqotchilari Zardushtning ismi, yashagan davri va vatani borasida turli, ba’zan ziddiyatli qarashlarni ilgari surganlar. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, garchi ayrim tadqiqotlarda Turon omiliga (masalan, Zardushtning kelib chiqishi yoki faoliyati orqali) murojaat qilinsa-da, umuman olganda, bu yondashuvda ham “Eronsentriзм” ustunlik qiladi va Turon bilan bog‘liq masalalar (xususan, Anahitaga sig‘inishning mahalliy ko‘rinishlari) ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi yoki manbalardagi qarama-qarshiliklar yetarlicha chuqur tahlil qilinmaydi.

Arab davlatlari tarixshunosligida Zardushtiylikka oid tadqiqotlar muhim bir qadam bo‘lib xizmat qilsa-da, bu mavzuni chuqur va keng qamrovli tahlil qilish imkoniyati hali to‘liq amalga oshirilmagan. Buning yaqqol misoli shundaki, arab tadqiqotchilari o‘z izlanishlari doirasida O‘zbekistonda amalga oshirilgan va “Avesto”ning Turon tarixi uchun ahamiyatini tahlil qiluvchi ko‘plab ilmiy ishlardan<sup>55</sup> deyarli foydalanmaganlar.

<sup>47</sup> Batafsil qarang: Abu-Rabi I.M. Contemporary Arab Thought: Studies in Post-1967 Arab Intellectual History. – London: Pluto Press, 2004. – 464 p.

<sup>48</sup> منذر الحايك. أبحاث كتاب زرادشت المقدس. الإصدار الأول 2019 م. – ص. 9.

<sup>49</sup> أمين محمد سعيد الطاهر. الفكر الأسطوري بالبعد الغيبي في الأديان "قراءة في الزرادشتية" "المجوسية" والمسيحية "النصرانية". ص. 15-20.

<sup>50</sup> آلاء علي. الديانة الزرادشتية، وأوجه الشبه، والإختلاف بينها وبين الدين الإسلامي. 2022. – ص. 7.

<sup>51</sup> خالد كبير علال. الزرادشتية ابتدئها المجوس في العصر الإسلامي. – ص. 145.

<sup>52</sup> الشفيق الماحي أحمد. زرادشت والزرادشتية. قسم الدراسات الإسلامية - جامعة الملك سعود. 2001. – ص. 10-12.

<sup>53</sup> جمشيد يوسفى. الزرادشتية الديانة والطقوس والتحويلات اللاحقة. الطبعة الأولى. 2012. – ص. 9.

<sup>54</sup> سعد عبود سمار. الإلهة أناهيتا: دراسة في التطور التاريخي لعبادتها // مجلة كلية التربية. – جامعة واسط. – العدد الحادي والثلاثون، 2018. – ص. 287-328.

<sup>55</sup> Исҳоқов М. Авеста: Зардушт “гоҳ”лари (мазмун ёндошувлари ва герменевтик талқинлари). – Тошкент: Bookman print, 2022. – 304 б.; Авесто: Яшт китоби / М. Исҳоқов таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 128

Uchinchi bobning “*Qiyosiy-diniy yondashuv – arab tarixshunosligining o‘ziga xos jihati*” deb nomlanib, unda Zardushtiylik va Islom dinlari o‘rtasidagi g‘oyaviy, marosimiy hamda huquqiy o‘xshashliklar va farqlar arab olimlari tadqiqotlarida qanday talqin etilgani qiyosiy dinshunoslik metodologiyasi asosida yoritilgan. Xususan, arab mualliflarining ikki din ta’limotidagi ilohiyot, payg‘ambarlik va oxirat haqidagi qarashlarga oid ilmiy-tanqidiy mulohazalari tizimli tahlilga tortilgan hamda arab tarixshunosligida qiyosiy yondashuvning shakllanish bosqichlari ochib berilgan.

Bu masalada tadqiqot olib borgan arab olimlari asosan dinshunoslik va islom tarixi sohasi mutaxassislaridir. Xolid Kabir<sup>56</sup>, Ala’a Ali<sup>57</sup>, Shofe’ Ahmad<sup>58</sup>, Amin Muhammad Said Tohir<sup>59</sup>, G’assan Hamdan<sup>60</sup> va Usama Adnan Yahyo<sup>61</sup> kabi tadqiqotchilarning asarlari shular jumlasidandir.

Arab tarixshunosligida zardushtiylikning islom dini bilan munosabati masalasiga “diniy-qiyosiy yondashuv” nuqtai nazaridan qaralganda, o‘zaro farqlanuvchi ikki xil ilmiy qarash mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Ulardan birinchisi – radikal yondashuv bo‘lib, uning yorqin vakili jazoirlik olim Xolid Kabir A’laldir. U zardushtiylikni islomdan avvalgi qadimiy din sifatida emas, balki hijriy 2–4-yuzyillarda (mil. 8–10-yuzyilliklar) “shuubiya” harakati ta’sirida majusiylar tomonidan o‘ylab topilgan “soxta din” deb baholaydi. Muallif o‘rta asr manbalarini subyektiv talqin qilgan holda, zardushtiylikni islomiy tushunchalar niqobi ostida qayta ishlangan majusiylik deb ataydi hamda Zardusht va Ibrohim payg‘ambar o‘rtasidagi o‘xshashliklarni tarixiy-diniy nomutanosibliklar (davr, makon va Qur’onda zikr etilmaganligi) orqali rad etadi. Ikkinchi – mo‘tadil qiyosiy yondashuv tarafdorlari (xususan, Ala’a Ali) esa zardushtiylikning qadimiylikni e’tirof etadilar. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar asosan ikki din o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash hamda o‘zaro ta’sir ya’ni qaysi biri birlamchi ekanligi masalalariga qaratilgan. Qayd etish joizki, Xolid Kabirning zardushtiylikni “islom davri mahsuli” deb atashi milliy va jahon tarixshunosligidagi mavjud arxeologik hamda yozma dalillarga ziddir. Zamonaviy milliy tadqiqotlar ushbu din mil. avv. II-I mingyillikda Turon zaminidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar natijasida shakllanganligini isbotlaydi.

Arab tadqiqotchilari (J. Yusufiy<sup>62</sup>, F. Sivah<sup>63</sup>) asarlarida zardushtiylikning ichki teologik-falsafiy muammolari, xususan, “Zurvoniylik” oqimi atroflicha tahlil etilgan. Aniqlanishicha, mazkur ta’limot zardushtiylikdagi dualizm (yaxshilik va yomonlik kurashi) muammosini hal qilishga urinish sifatida yuzaga kelib, unda Ahuramazda va Ahrimandan ustun turuvchi mutlaq ibtido – Zurvon (Cheksiz

б.; Аширов А. “Авесто”дан мерос маросимлар, Масъул муҳаррир: Д.А. Алимова, – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашри, 2001. – 32 б.; Абдалов У. Зардуштийлик дини тарихи, анъана ва маросимларини тадқиқ қилишнинг асослари // Хоразм - Марказий Осиё цивилизацияси тизимида. – Урганч, – 2020. – Б. 113-115; Аъзамова С. Авестода аёл образи // Шарқ ва Ғарб: Зардуштийлик ва Авестонинг ғарб дунёқарашига таъсири. Халқаро илмий-назарий семинар материаллари. – Наманган, – 2001. – Б. 68-69

56 خالد كبير علال. الزرادشتية ابتدئها المجوس في العصر الإسلامي. دار المحتسب. الجزائر. 2019. – ص. 145.

57 آلاء علي. الديانة الزرادشتية، و أوجه الشبه، و الإختلاف بينها و بين الدين الإسلامي. 2022. – ص. 25.

58 الشفيق الماحي أحمد. زرادشت والزرادشتية. قسم الدراسات الإسلامية - جامعة الملك سعود. 2001. – ص. 120.

59 أمين محمد سعيد الطاهر. الفكر الأسطوري بالبعد الغيبي في الأديان "قراء في الزرادشتية" "المجوسية" والمسيحية "النصرانية". المجلد الأول – العدد الثالث. سبتمبر 2019. – ص. 31.

60 غسان حمدان. ملاحظات عن الثقافة الزرادشتية. 2021. – ص. 5.

61 اسامة عدنان يحيى. الديانة الزرادشتية ملاحظات واره. اشور بانبيال للكتاب. الطبعة الأولى: ٢٠١٦. – ص. 170.

62 جمشيد يوسفي. الزرادشتية الديانة والطقوس والتحويلات اللاحقة. الطبعة الاولى. 2012. – ص. 351 – 352.

63 فراس السواح. الزار دشتية - المانوية - اليهودية - المسيحية. مكتبة الفكر الجديد. 2018. – ص. 400.

zamon) g'oyasi ilgari surilgan. Tadqiqotchilar tarixiy manbalarning taqchilligiga tayangan holda, ushbu oqimning paydo bo'lishini aniq davrlashtirish imkonsizligini, biroq u Sosoniylar davrida an'anaviy zardushtiylik bilan raqobatlashgan falsafiy harakat bo'lganligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, arab olimlari oqim ichidagi ziddiyatli qarashlar mavjudligiga e'tibor qaratib, umumiy xulosalarida G'arb ilmiy maktabi bilan hamohanglik kasb etadilar<sup>64</sup>.

## XULOSA

Turonning qadimgi davri arab tarixshunosligida o'rganilishi doirasida olib borilgan tadqiqot yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Zamonaviy arab tarixshunosligida Turon mintaqasi qadimgi sivilizatsiyasi tarixini yoritishda tashqi ta'sir omilini mutlaqlashtirish, xususan, madaniy yutuqlarni Yaqin Sharqdan kirib kelgan degan qarash ustunlik qiladi. Bu yondashuv mintaqadagi avtohton (mahalliy) rivojlanish jarayonlarini, ya'ni o'ziga xos tarixiy sharoitda vujudga kelgan mustaqil davlatchilik va madaniy rivojlanish bosqichlarini to'liq qamrab ololmaydi. Shu bois, aksariyat arab tadqiqotchilari asarlarida Turon sivilizatsiyasi Yaqin Sharq madaniyatining bir qismi sifatida talqin qilinib, uning asl tarixiy taraqqiyot dinamikasi e'tibordan chetda qoladi.

2. O'rganilgan davr arab tarixshunosligida kuzatilgan jiddiy metodologik muammolardan biri – bu manbaviy bazaning til jihatidan cheklanganligidir. Arab mualliflarining aksariyati sovet va mustaqillik davrida yaratilgan rus hamda o'zbek tilidagi fundamental tadqiqotlar, arxeologik hisobotlardan bevosita foydalanish imkoniga ega emas. Ular, asosan, ingliz tilidagi ikkilamchi manbalarga yoki G'arb tarixshunosligidagi talqinlarga tayanib qolmoqda. Mazkur holat Turon qadimgi tarixi bo'yicha chuqur tahliliy asarlarning kamligiga va tarixiy jarayonlarning fragmentar yoritilishiga sabab bo'lgan.

3. 20-yuzyillikning so'nggi choragi va 21-yuzyillik boshlarida arab tarixshunosligida Turon tarixiga oid tadqiqotlar ko'lamining kengayishi bevosita geosiyosiy o'zgarishlar, ya'ni Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy mustaqillikka erishishi bilan izohlanadi. Ushbu davrda mintaqani umumislom sivilizatsiyasi kontekstida qayta tahlil qilish jarayoni kuzatiladi. Arab mualliflarining ushbu yondashuvi o'z mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlar hamda "islomiy o'zlikni" anglashga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqqan holda shakllangan.

4. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy arab tarixshunosligida o'rganilayotgan davrlar o'rtasida jiddiy nomutanosiblik saqlanib qolmoqda. Asosiy e'tibor islomlashuvdan keyingi bosqichlarga qaratilgan bo'lib, qadimgi davr tarixi alohida fundamental tadqiqot obyekti sifatida emas, balki ko'proq Islom sivilizatsiyasining muqaddimasi sifatida talqin qilinadi. Ushbu davrni yoritishda arxeologik dalillar va moddiy manbalar tahlilining yetishmasligi kuzatiladi. Natijada, qadimgi Turon tarixi ilmiy xolislik mezonlari asosida emas, balki o'tmishga keyingi davr qarashlari bilan yondashish (retrospektiv) tendensiyasi asosida yoritilgan.

5. Zamonaviy arab tarixshunosligida Turonning qadimgi ma'naviy hayotini yoritishda Zardushtiylik ta'limoti va "Avesto" matnlarini o'rganish ustuvor

---

<sup>64</sup> Zaehner R. C. Zurvan. A Zoroastrian Dilemma. – Oxford: Clarendon Press, 1955. – 318 p.

ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzuning tadqiqotlar markaziga chiqishi shunchaki ilmiy qiziqish mahsuli bo'lmay, balki arab jamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqdir. So'nggi davrlarda islomgacha bo'lgan e'tiqodiy tizimlarga nisbatan an'anaviy qarashlardan voz kechish, ularni qiyosiy dinshunoslik nuqtai nazaridan xolis tahlil qilish va tarixiy merosni qayta baholash harakati ushbu yo'nalishdagi ishlarning salmog'i ortishiga xizmat qildi.

6. O'rganilgan adabiyotlarda Zardushtiylik mavzusiga yondashuvda qiyosiy-tahlil metodologiyasi yetakchilik qiladi, bunda asosiy e'tibor uni Islom dini aqidalari bilan solishtirishga qaratilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aksariyat mualliflar "Avesto" matnlarining manbaviy ishonchliligi va tarixiy sanasiga nisbatan o'ta tanqidiy munosabatda bo'lishgan. Natijada, ushbu manbalarni ilmiy-tarixiy hujjat sifatida emas, balki keyingi davr to'qimalari sifatida talqin qilish holati yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu esa tadqiqotlardagi ilmiy xolislik mezonlarining ma'lum darajada buzilishiga sabab bo'lgan.

7. Mintaqaning qadimgi siyosiy xaritasini tashkil etgan Xorazm, So'g'diyona, Baqtriya, Qang' va Farg'ona kabi davlat tuzilmalari tarixi arab mualliflari asarlarida yaxlit tadqiqot obyekti sifatida qamrab olinmagan. Ushbu siyosiy-hududiy birliklar faqat umumiy tarzda, fragmentar ma'lumotlar asosida yoritilgan. Tadqiqotlarda ilmiy muammoning mohiyatini ochishga qaratilgan tahlil o'rniga, voqealarni shunchaki qayd etish uslubi yetakchilik qiladi, bu esa qadimgi davlatchilik tizimi rivojlanishini tizimli o'rganishga to'sqinlik qilgan.

8. Turonning qadimgi tarixini faqat yozma manbalar asosida o'rganish an'anasi bugungi kun talablariga to'liq javob bermaydi. Arab tarixshunosligida kuzatilgan biryoqlama yondashuvlarning asosiy omili – bu fanlararo aloqalarning yetishmasligi hamda ilmiy tadqiqotlarning yopiq holda olib borilishidir (izolyatsiyasi). Aynan ushbu omillar Turon sivilizatsiyasining jahon tarixshunosligi kontekstidagi o'rnini xolis baholashga to'sqinlik qilayotgan asosiy to'siq sifatida baholandi.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot davomida quyidagi **taklif** va **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Arab davlatlari ilmiy fondlarida saqlanayotgan, Turonning qadimgi tarixiga oid birlamchi manbalarni, xususan, mixxat yozuvi va boshqa qadimgi yozuvlardagi nodir hujjatlarni o'rganish va tarjima qilish tizimini shakllantirish hamda qadimgi tillar va yozuvlarni mukammal biladigan tor doiradagi manbashunos-mutaxassislarni tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratish;

2. Turon va Yaqin Sharq sivilizatsiyalari o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarni chuqur o'rganish maqsadida xalqaro ilmiy muloqot platformasini yaratish. Buning uchun o'zbek va arab olimlari ishtirokida muntazam fanlararo ilmiy anjumanlar o'tkazish hamda O'zbekiston hududidagi qadimgi yodgorliklarda qo'shma xalqaro arxeologik ekspeditsiyalar faoliyatini yo'lga qo'yish;

3. Qadimgi Turon tarixi bo'yicha qo'lga kiritilgan ilmiy yangiliklarni xalqaro miqyosda, xususan, arab dunyosida keng targ'ib qilish uchun hammualliflikda fundamental ilmiy asarlar nashr etish amaliyotini joriy qilish hamda ilmiy integratsiyani kuchaytirish maqsadida ikki mintaqa oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari o'rtasida talabalar, tadqiqotchilar almashinuvini tizimli tashkil etish zarur.

**SCIENTIFIC COUNCIL NUMBER DSc.05/2025.27.12.Tar.05.01  
ON AWARDING ACADEMIC DEGREES AT THE INSTITUTE OF  
HISTORY OF THE ACADEMY OF SCIENCES  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

---

**INSTITUTE OF HISTORY**

**ULUGBEK NUSRATULLO UGLI OLIMOV**

**THE ANCIENT PERIOD OF TURAN IN ARAB HISTORIOGRAPHY  
(Analysis of research from the second half of the 20th to the early 21st centuries)**

**07.00.08 – Historiography, source studies and methods of historical research**

**Doctor of Philosophy (PhD) dissertation in historical sciences  
ABSTRACT**

**Tashkent, 2026**

**The theme of the doctoral dissertation (PhD) was registered at the Supreme Attestation of the Republic of Uzbekistan number No. B2023.4.PhD/Tar1753.**

The dissertation is completed at the Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume) on the website of the Academic Council ([www.fati.uz](http://www.fati.uz)) and on the Informational and Educational Portal "ZiyoNET" ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Supervisor:**

**Nigora Ashirovna Allaeva**

Doctor of Historical Sciences, professor

**Official opponents:**

**Azimkhoja Muzaffarovich Atakhodjayev**

Doctor of Historical Sciences, professor

**Tohir Khusanovich Norkobilov**

Doctor of Philosophy (PhD) in History

**Leading organization**

**Tashkent State University of Oriental Studies**

The defence of dissertation will take place on April 10, 2026 at 14:00 at the meeting of the Scientific Council DSc.05/2025.27.12.Tar.05.01 on awarding academic degrees at the Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. Address: 100060, Tashkent, Shahrisabz Street, 5, The Institute of History, 8th floor, Meeting Hall. Tel.: (+99871) 233-54-70; fax: (+99871) 233-39-91, e-mail: [info@fati.uz](mailto:info@fati.uz).

The dissertation is available at the Fundamental Library of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (Registered under No. \_\_\_\_). Address: 100170, Tashkent, Ziyolilar Street, 13). Tel.: (+99871) 262-74-58; Fax: (+99871) 262-34-41.

The abstract of dissertation was distributed on March 19, 2026.

(Registry protocol No. 6 dated March 19, 2026).



**Azamat Ziyo**

Chairman of the Scientific Council on awarding the scientific degrees, Doctor of Historical Sciences, academic

**Kh.S. Jumanazarov**

Scientific secretary of the Scientific Council on awarding the scientific degrees, Doctor of Historical Sciences (DSc)

**F.S. Boboyev**

Chairman of the Scientific seminar under of the Scientific Council on awarding the scientific degrees, Doctor of Historical Sciences (DSc)

## INTRODUCTION

(Annotation of the dissertation of doctor of philosophy (PhD))

**Relevance and necessity of the dissertation topic.** In the context of the current globalization process, the objective assessment of historical-cultural relations between centers of world civilization and the identification of general laws in human development acquire great importance. The interpretation of the statehood of Eastern peoples and the history of the ancient period in modern foreign scientific schools, particularly in Arab historiography, demonstrates the ideological roots of interregional relations and the mutual continuity of historical processes. These approaches serve to enrich the conceptual views existing in world historiography today and to raise the processes of cultural and educational integration between peoples to a new level.

In numerous prestigious research centers and higher education institutions worldwide, the ancient history of Turan, including its early centers of civilization, its unique system of statehood, and its extensive trade and cultural relations with neighboring regions, is recognized as an integral part of world heritage, and large-scale research is being conducted in this direction. At the same time, substantiating the historical connection between the monuments of Turan and the Near East on the basis of the conclusions of Arab scholars, comparing their interpretations regarding early statehood and political history with the results of other foreign studies, as well as elucidating the scientific views formed in Arab countries regarding the Zoroastrian religion and the heritage of the “Avesta” are of urgent importance in filling the existing scientific gaps in the field.

In New Uzbekistan, particular attention is being paid to strengthening national self-awareness and conducting an objective study of historical heritage, especially its under-researched aspects. At the core of these reforms lies the task of providing a scholarly assessment of the ancient roots of Uzbek statehood and determining its place within world civilization. Indeed, as emphasized in official discourse, “... approximately three thousand years ago, the emergence of the first cities and early forms of statehood in the region laid the foundation for the rapid development of new social concepts and philosophical views, as well as science – particularly medicine and astronomy – along with geography and mathematics, geodesy, architecture, and cultural, educational, and religious values.<sup>1</sup>” From this perspective, studying the earliest period of Turan’s history on the basis of foreign sources, especially the research conducted by representatives of the Arab archaeological school, and comparatively analyzing the assessments given to this period, constitutes an important scholarly task in revealing its international significance.

This dissertation research contributes to a certain extent to the implementation of the objectives defined in the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 dated February 7, 2017, “On the Action Strategy for the Further Development of the Republic of Uzbekistan” the Presidential Order No. F-5181 dated January 16, 2018, “On Improving the Protection and Use of Objects of Material Cultural and

---

<sup>1</sup> Speech by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev delivered on September 15, 2021, to the participants of the International Cultural Forum “Central Asia at the Crossroads of World Civilizations // <https://president.uz/oz/lists/view/4614>

Archaeological Heritage” and the Decree No. PF-6097 dated October 29, 2020, “On the Approval of the Concept for the Development of Science until 2030” which emphasize the preservation of historical heritage, the objective study of the past, and the advancement of scientific research in accordance with international standards.

**Correspondence of research to the priorities of the development of science and technology of the republic.** The dissertation was carried out within the framework of the priority direction I of the development of science and technology of the Republic, entitled “Ways to form innovative ideas and implement them in the social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational development of an information-oriented society and a democratic state”.

**The degree of study of the topic.** The issue of the reflection of the ancient history of Turan in Arab historiography has not been specifically studied to date as an independent object of research. In this regard, it is possible to refer only to certain observations expressed within historiographical discussions. In particular, some Arab scholars have addressed the necessity, current state, and existing problems of studying this topic in the introductory and concluding sections of their works. They have provided general overviews of earlier scholarly studies on the ancient period of Turan, highlighting both the achievements attained and the shortcomings that remain.

Notably, the Kuwaiti researcher Nadir Vasir, in his monograph “The Land of Mawarannahr: From the Islamic Conquest to the Russian Occupation<sup>2</sup>” emphasized such existing problems as the limited degree of research on Turan’s history by earlier Arab authors, the insufficient attention paid to this topic in Arab countries, and the scarcity of scholarly literature in the Arabic language. Similarly, the Saudi scholar Muhammad Musa Sharif, in his study “Scholars of Central Asia (Turkestan): from antiquity to the present day”<sup>3</sup> identified as one of the main deficiencies in researching this topic the script reform carried out during the Soviet period, which led to the abandonment of the Arabic script.

Among the studies of theoretical and methodological significance for addressing this topic, the research conducted by Sh. Ikromov deserves particular attention<sup>4</sup>. Although his work is devoted to the contemporary history of Uzbekistan, it provides valuable insights into perceptions of Uzbekistan’s history through an analysis of research centers in Arab countries, approaches to the study of historical science, and the conclusions drawn by specialists in the field. The author examines studies conducted in Arab countries concerning democratic processes in Uzbekistan, including the dynamics of the revival and strengthening of religious values, foreign and domestic policy issues, bilateral cooperation, and their future prospects, as well as the activities of relevant academic institutions.

As can be observed, existing studies in this field mainly cover historical processes of the last thirty years. Consequently, there remains a clear need for comprehensive research on issues related to the ancient period of Turan, including the stages of

---

<sup>2</sup> نادر الوثير. بلاد ما وراء النهر من الفتح الإسلامي إلى الاحتلال الروسي. – الطبعة الأولى. 1445هـ/2024م. – ص. 676.

<sup>3</sup> محمد بن موسى الشريف. علماء آسيا الوسطى (التركستان) بين الماضي والحاضر. 2009. – ص. 79.

<sup>4</sup> Ikromov Sh. Mustaqil O‘zbekistondagi transformatsiya jarayonlarining arab davlatlarida yoritilishi: Tarix fan. b-cha falsafa dokt. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2022. – 146 b.

development of archaeology in Arab countries, Arab scholars engaged in the study of Turan's ancient history, problems of early statehood, the periods of Achaemenid and Greco-Macedonian domination, and socio-spiritual aspects of historical development. The works of Arab scholars who directly investigated the ancient period of Turan have been subjected to detailed historiographical analysis in the chapters of this dissertation.

**The connection of the dissertation with the research plans of the higher education and scientific-research institution where the work has been conducted.** The dissertation was completed within the framework of the ten-volume academic research project "History of the Uzbek People and Statehood (from Ancient times to the present)" conducted by the Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

**The purpose of the study** is to identify scientific interpretations and approaches in Arab historiography regarding the ancient history of Turan, specifically the period from the earliest times to the Greco-Macedonian invasion, to conduct a comparative analysis, and to reveal their theoretical and source significance for national historiography.

**Research objectives:**

to identify the socio-political and scientific factors underlying the growing interest in the study of the history of Turan in Arab countries;

to analyze the stages of development of the field of archaeology in Arab countries and the main theoretical approaches to the study of the region's history;

to reveal the factors underlying Arab historians' interest in the history of Turan;

to carry out a comparative analysis of the scholarly conclusions of national and Arab researchers based on data obtained through the comparison of ancient settlements in Turan and Arab countries;

